XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2023 - yil 10 - yanvar VI-65-14-8-0-K/23 Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalariga asosan Surxondaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti tinglandi va deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i E.Narmanovning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-va 437-moddalariga asosan Surxondaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov)ga:

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasida Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 29,0 mln. so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 268 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan Surxondaryo televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar

va chiqishlarni amalga oshirish hamda televideniye orqali ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

tumanlar va shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini 5 (besh) kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

2023-yil yanvar oyida 2022-yil davomida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer soliqlarini belgilangan muddatda va miqdorda faollik bilan to‘lagan viloyatdagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarni mahalliy budjet hisobidan moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish to‘g‘risida tegishli xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga takliflar kiritsin;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

har chorak yakunida yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlar to‘g‘risida xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlariga, viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), “Surxondaryo” viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad hamda uning viloyat, tuman (shhar)lar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **A.R.Choriyev**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-65-14-8-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2023-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

№	Hudud nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Termiz shahri	1,63	47 125 000,00	1,48	395,46
2	Angor tumani	1,38	39 875 000,00	1,25	334,62
3	Oltinsoy tumani	1,25	36 250 000,00	1,14	304,20
4	Boysun tumani	1,25	36 250 000,00	1,14	304,20
5	Muzrabot tumani	1,25	36 250 000,00	1,14	304,20
6	Denov tumani	1,50	43 500 000,00	1,36	365,04
7	Jarqo‘rg‘on tumani	1,38	39 875 000,00	1,25	334,62
8	Qumqo‘rg‘on tumani	1,31	38 062 500,00	1,19	319,41
9	Qiziriq tumani	1,25	36 250 000,00	1,14	304,20
10	Sariosiyo tumani	1,25	36 250 000,00	1,14	304,20
11	Termiz tumani	1,34	38 787 500,00	1,21	325,49
12	Sherobod tumani	1,25	36 250 000,00	1,14	304,20
13	Sho‘rchi tumani	1,44	41 687 500,00	1,31	349,83
14	Uzun tumani	1,25	36 250 000,00	1,14	304,20
15	Bandixon tumani	1,25	36 250 000,00	1,14	304,20